



SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION AND CENTRAL ASIA: THE PATH OF INTEGRATION AND DEVELOPMENT

Shuhratjon Abdulazizovich Khaydaraliyev
Professor, Namangan State University, acting
Doctor of Philosophy (DSc)
Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: "Shanghai spirit", "Samarkand spirit", SCO plus, RATSC, UN, "SCO family", "Central Asian spirit", "People's diplomacy".

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article covers the information on the interaction and direct activities of the SCO and the Central Asian states in the period from 1996 to 2025. Looking back at history, this organization, which focuses on regional security and economic cooperation, was established in 1996 under the name "Shanghai Five" with the participation of 5 countries (China, Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan). Uzbekistan, with its numerous initiatives, revives the activities of the SCO. In particular, in recent years, out of 105 initiatives put forward by Uzbekistan, more than 80 have been implemented in practice. Over the past 24 years, the SCO has not only become an influential organization in the international arena, but also occupied an important place in the global geopolitical space of Eurasia and the world community.

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI VA MARKAZIY OSIYO: INTEGRATSIYA VA TARAQQIYOT SARI

Shuhratjon Abdulazizovich Xaydaraliyev
Namangan davlat universiteti professori v.b.
Falsafa fanlari doktori (DSc)
shuxrathaydaraliyev@gmail.com
Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: “Shanxay ruhi”, “Samarqand ruhi”, ShHT plyus, RATS, BMT, “ShHT oilasi” “Markaziy Osiyo ruhi”, “Xalq diplomatiyasi”.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ShHT va Markaziy Osiyo davlatlarining 1996-2025-yillar davomida olib borayotgan oʻzaro hamkorlik aloqalari va bevosita faoliyati aniq malumotlarga asoslanib yoritib berilgan. Tarixga nazar soladigan boʻlsak dastlab, asosiy eʼtiborini mintaqalar xavfsizligiga va iqtisodiy hamkorlikga qaratgan ushbu tashkilot 1996-yili 5 ta mamlakat (Xitoy, Rossiya, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston) ishtirokida “Shanxay beshligi” nomi bilan tuzilgan. Oʻzbekiston oʻzining koʻplab tashabbuslari bilan ShHT faoliyatini jonlantirib kelmoqda. Jumladan, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston ilgari surgan 105 tashabbusdan 80 dan ortigʻi amalda roʻyobga chiqarilgan. ShHT oʻtgan 24 yilda mobaynida xalqaro maydonda nufuzli tashkilotga aylanibgina qolmasdan, Yevrosiyo va jahon hamjamiyati global geosiyosiy makonida muhim oʻrin egalladi.

ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА И ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ: ПУТЬ ИНТЕГРАЦИИ И РАЗВИТИЯ

Шухратжон Абдулазизович Хайдаралиев

Профессор Наманганского государственного университета, и.о.

доктор философии (DSc)

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Шанхайский дух», «Самаркандский дух», ШОС плюс, РАТС, ООН, «Семя ШОС», «Веяние Центральной Азии», «Народная дипломатия».

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается сотрудничество и непосредственная деятельность ШОС с государствами Центральной Азии в 1996–2025 годах. Если обратиться к истории, то эта организация, изначально ориентированная на региональную безопасность и экономическое сотрудничество, была создана в 1996 году при участии пяти стран (Китай, Россия, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан) под названием «Шанхайская пятёрка». Узбекистан своими многочисленными инициативами активизирует деятельность ШОС. В частности, из 105 инициатив, выдвинутых Узбекистаном в последние годы, более 80 были реализованы. За

прошедшие 24 года ШОС не только стала влиятельной организацией на международной арене, но и заняла важное место в глобальном геополитическом пространстве Евразии и мировом сообществе.

Kirish. Shanxay hamkorlik tashkiloti tarixga nazar soladigan bo'lsak dastlab, asosiy e'tiborini o'zaro chegaralardagi barqarorlikni ta'minlashga qaratgan ushbu tashkilot 1996-yili 5 ta mamlakat (Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston) ishtirokida "Shanxay beshligi" nomi bilan tuzilgan. Unda "Chegaradosh mamlakatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash" (1996) va "Qo'shma chegarada qurolli kuchlar va qurol-yarog'larni qisqartirish" (1997) to'g'risida 2 ta bitim imzolangan edi. Beshta davlatning o'zaro aloqasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tufayli bu tashkilotga transchegaraviy hamkorlik doirasidan chiqish imkonini berdi. Shunday qilib, 2000-yilda "Shanxay beshligi" Shanxay forumiga aylandi, O'zbekiston sammitda kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. 2001-yilda O'zbekiston ushbu tashkilotga rasman a'zo bo'ldi. Shunday qilib, "Shanxay beshligi" Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) deb o'zgartirildi.

Asosiy qism. O'zbekiston o'zining ko'plab tashabbuslari bilan ShHT faoliyatini jonlantirib kelmoqda. Jumladan, so'nggi yillarda O'zbekiston ilgari surgan 105 tashabbusdan 80 dan ortig'i amaliyotda o'z ifodasini topdi. Dastlab u oltita davlat – Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Tojikiston va O'zbekistonni o'z ichiga olgan bo'lsa, 2017-yilda Hindiston va Pokiston, 2023-yilda Eron, 2024-yilda Belarus tashkilotga a'zo bo'ldi.

ShHT o'tgan 24 yilda mobaynida xalqaro maydonda nufuzli tashkilotga aylanibgina qolmasdan, Yevrosiyo va jahonxamjamiyati global geosiyosiy makonida muhim o'rin egalladi. Hozirgi kunda tashkilot 10 a'zo davlat, 2 kuzatuvchi va 14 ta muloqot bo'yicha sherikni birlashtirgan yirik mintaqaviy tuzulma, hamkorlik, xavfsizlik, barqarorlik va ilm-fan, sport kabi barcha sohalarni qamrab olgan nufuzli tashkilot sifatida shakllanib bormoqda.

O'zbekiston SHHTni jahondagi jarayonlarida muhim rol o'ynaydigan nufuzli xalqaro tashkilot deb biladi. Mamlakatimizning ShHT faoliyatidagi ishtiroki O'zbekistonning milliy manfaatlariga to'la mos keladi, xavfsizlik, iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgani uchun SHHTda "bog'lovchi halqa" vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston ShHT xavfsizlik yo'nalishida doimo faol. Jumladan, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda tashabbus ko'rsatib keladi. Toshkentda

joylashgan ShHTning Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (RATS) mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim institut sifatida ishlaydi.

O'zbekiston ShHTni nafaqat iqtisodiy yoki xavfsizlik ittifoqi sifatida, balki muvozanatli hamkorlik maydoni sifatida ko'radi. Tashkilot a'zolari orasida turli geosiyosiy qarama-qarshiliklar mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston o'zining betaraflik va muvozanatli diplomatiyasi bilan turli tomonlarni birlashtirishga intiladi.

Qisqacha qilib aytganda "Shanxay Hamkorlik Tashkilotining turli bloklardan mustaqilligi, erkin va ochiqiligi, hech qaysi blok va tuzulmalarni faoliyatiga qarshi turmasligi, uchinchi mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmagani, barcha ishtirokchi tomonlarning tengligi va suverenitetini hurmat qilish, ichki ishlarga aralashmaslik, siyosiy qarama-qarshilik va ixtilofli raqiblikka yo'l qo'ymaslik, o'zaro ishonch va manfaat, birgalikda rivojlanishga intilish, madaniyatlar xilma xilligiga hurmat kabi tamoyillari ustuvordir" [1].

Bu esa ShHTga bo'lgan xalqaro qiziqishning ortib borayotgani va uning global diplomatiyadagi ta'sir kuchi kengayayotganidan dalolat beradi. Hozirgi kunda ShHT dunyo aholisining qariyb 40 foizi, 3,2 milliard kishini qamrab olgan, jahon yalpi ichki mahsulotining 25 foizi tashkilotga a'zo davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich 2030-yillarga borib 35-40 foizni tashkil etilishi kutilmoqda. Kundan kunga tashkilotga a'zo bo'lmoqchi bo'lgan davlatlarning safi kengayib bormoqda bu esa o'z navbatida yangi mintaqaviy diplomatiyani va hamkorlikning yangi prinsiplari tashkil topayotganligining isbotidir. Jadal sur'atda rivojlanib borayotgan jamiyatimiz taraqqiyotini xalqaro hamkorliksiz tassavur qilib bo'lmaydi. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari ham ShHT doirasida o'zining va mintaqa xavfsizligi va hamkorligi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda tashkilot sammitlarda ko'proq muloqat va o'zaro ishonch prinsiplariga tayangan holda faoliyatlarini kengaytirmoqda. Mintaqamizda mavjud bo'lgan nizo va kelishmovchiliklarni tugatib dunyo barqarorligi va hamjihatligi borasida taklif, tashabbuslar bilan chiqmoqdalar.

2025-yilning 31-avgust – 1-sentyabr kunlari Xitoyning Tyanszin shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotining 25-sammiti va "ShHT plyus" sammiti mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning 25 dan ortiq jahon yetakchisi, shuningdek 10 dan ortiq xalqaro tashkilot vakillari jumladan, Markaziy Osiyoning barcha davlatlari prezidentlarini birlashtirdi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu sammitda nutq so'zlab, tashkilot doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

— ShHT institutlari samaradorligini oshirish va uni Global Janub mamlakatlari hisobiga kengaytirish;

— yadro xavfsizligi masalalari bo'yicha deklaratsiya qabul qilish;

— ichki ishlar vazirlari kengashi faoliyatini qayta tiklash;

— 2030-yilgacha mo'ljallangan giyohvandlikka qarshi kurash dasturini ishlab chiqish;

— "ShHT–Afg'oniston" muloqot guruhi ishini jonlantirish;

— savdo jarayonlarini yengillashtirish bo'yicha bitimni imzolash;

— strategik materiallar bo'yicha mintaqaviy markaz tashkil etish;

— ShHT Energetika konsorsiumini barpo etish.

Davlat rahbarining fikricha, ShHTning samarali faoliyati va global nufuzini oshirish bugungi zamonda juda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz yetakchisi ushbu sammit global noaniqlik sharoitida o'tayotganini ta'kidlab shunday dedi: "Ishonchning tizimli inqirozi, mojarolarning kengayib borayotgani, ko'p tomonlama institutlarning zaiflashishi va jahon savdo tizimining parchalanishi, xalqaro xavfsizlik va barqarorlik arxitekturasi asoslariga putur yetkazmoqda. — Bunday sharoitda SHHT davlatlarining bir-birini o'zaro tushunishi va birdamligi — bu faqat qimmatli boylik emas, balki bizning bepoyon mintaqamizda tinchlikni saqlashning kalitidi" [2].

Uchrashuv yakunlari sammit ishtirokchilarining qo'shma deklaratsiyasida qisqacha bayon etildi. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan asosiy sammitda ham, "ShHT plyus" uchrashuvida ham ShHTni yanada kengaytirish, uning xalqaro maydondagi ovozi kuchaytirish, shuningdek, ishonch, xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikni ta'minlashning yangi mexanizmlarini joriy etishni masalalariga daxldor takliflar berildi.

Markaziy Osiyo ShHTning yuragi va asosiy geostrategik tayanchi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mintaqadagi muammolarning eng yirigi deb hisoblangan Afg'oniston masalasi mintaqadagi barcha davlatlarga qolaversa butun jahon xavfsizlik tizimiga xavf solishi sammitning kun tartibidagi asosiy masala ekanligini Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida etirof etib o'tdilar. Mintaqaviy muammolar, transmilliy tahdidlar – terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va qurol kontrabandasiga qarshi kurashda tashkilot o'rni va ahamiyati katta ekanligi va ushbu hamkorlik yo'lida nufuzli tashkilotlarning faoliyatini kuchaytirish zarurligi beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois Tyanszin sammiti mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muloqotlar va muzokoralar maydoniga aylandi.

Sammitda yana bir muhim qaror qabul qilindi — Toshkent shahrida SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi asosida xavfsizlikka tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha Universal

markaz tashkil etiladi. Shuningdek, uning huzurida Axborot xavfsizligi markazi ham faoliyat yuritadi.

Sammitda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining Tyanszin deklaratsiyasiga, ShHTning 2035-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasiga, xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, ShHTning tashkilot sifatida rivojlanishiga oid boshqa yakuniy hujjatlarga imzo chekildi va qabul qilindi hamda ShHT raisligini 2025-2026-yillarda Qirg'iz Respublikasiga topshirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ShHTning bugungi kundagi roli ya'ni xalqaro munosabatlarning zamonaviy modeli sifatidagi ahamiyati juda ham yuqori baholab kelinmoqda:

Birinchidan, o'tgan davr mobaynida ShHT o'zini faoliyati tufayli tinchliksevar tashkilotligiga asos sola oldi. Xavfsizlikdan to madaniy va marifiy ishlarni qamrab oldi.

Ikkinchidan, tashkilot doirasida o'tkazilayotgan sammitlar va imzolanayotgan hujjatlar qonuniyligi va ijro ahamiyati yuqoriligi natijasida a'zo bo'lish istagidagi davlatlar soni ham ortib bormoqda.

Uchinchidan, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda ShHTning asosiy yutug'i umumiylik va birdamlikda ekanligi.

To'rtinchidan, bu tashkilot juda katta iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatga ega.

Shavkat Mirziyoyevning "ShHT oilasi" jipsligini kuchaytirishimiz, birgalikda rivojlanish tamoyilini hayotga tadbiq etib, yangi imkoniyatlardan keng foydalanishimiz, "Shanxay ruhi" "Samarqand ruhi" g'oyasi Yangi O'zbekistonda ilgari surilayotgan "Xalq diplomatiyasi" tushunchalari o'z mohiyatiga ko'ra ShHT imijini shakillantirishga xizmat qiladi"[3], - degan fikrlari bugungi kunning bosh g'oyasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dilafro'z Eshankulova Alisherovna, Abduraimova Charos Akramjon qizi. (2025). Shanxay hamkorlik tashkiloti: yangi xalqaro munosabatlar modeli sifatida. <https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/90258>.

2. Yangi O'zbekiston. ShXT sammiti barqarorlikni yanada mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi № 181 (1507), 2025-yil 2-sentyabr.

3. Yangi O'zbekiston. O'zbekisto-SHXT; № 180 (1506), 2025-yil 1 sentyabr..